

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqi asosida

УДК: 616.133.286-611.716-089.843

**JUMAYEV ELDOR AKMAL O‘G‘LI**

**DENTAL IMPLANTATSIYADAN OLDIN ALVEOLYAR SUYAK  
HAJMINI TIKLASHDA SINTETIK VA KSENOGEN OSTEOPLASTIK  
MATERIALLARNI QO‘LLASH SAMARADORLIGINING QIYOSIY  
TAHLILI**

Stomatologiya (yo‘nalishlar bo‘yicha): **70910101**

Magistr ilmiy darajasi uchun yozilgan

**DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar:

PhD. Ismatov F.A.

Samarqand - 2023

## MUNDARIJA

<b>Qisqartmalar ro'yxati</b>	<b>3</b>
<b>Kirish</b>	<b>4</b>
<b>I BOB. DENTAL IMPLANTATSIYADAN OLDINGI SUYAK PLASTIKASINING ASOSIY TENDENSIYALARI (ADABIYOTLAR SHARHI).</b>	<b>7</b>
<b>1.1. Alveolyar suyak atrofiyasi: etiologiya, patogenez.</b>	<b>7</b>
<b>1.2. Alveolyar suyak hajmini tiklash metodlari.</b>	<b>20</b>
<b>1.3. Dental implantatsiyadan oldin qo'llaniladigan osteoplastik materiallar.</b>	<b>23</b>
<b>II-BOB. MATERIALLAR VA TADQIQOT USULLARI.</b>	<b>45</b>
<b>2.1. Klinik tadqiqot usullari.</b>	<b>45</b>
<b>2.2. Bemorlarni o'rganish guruhlari bo'yicha taqsimlash.</b>	<b>46</b>
<b>2.3. Stomatologik tekshirish usullari.</b>	<b>46</b>
<b>2.4. Nurli tekshirish usullari.</b>	<b>50</b>
<b>2.5. Ma'lumotlarning statistik tahlili</b>	<b>50</b>
<b>III BOB. Tadqiqot natijalari</b>	<b>51</b>
<b>3.1. Tadqiqotga kiritilgan bemorlar tavsifi</b>	<b>51</b>
<b>3.2. Klinik tadqiqot natijalari</b>	<b>54</b>
<b>3.3. Nurli tadqiqot natijalari</b>	<b>60</b>
<b>3.4 Implantat barqarorligining rezonans-chastotali tahlili natijalari</b>	<b>64</b>
<b>3.5 Xaunsfild bo'yicha suyak zichligi ko'rsatkichlari</b>	<b>79</b>
<b>IV BOB. XULOSA</b>	<b>80</b>
<b>Adabiyotlar ro'yxati</b>	<b>82</b>

## **QISQARTMALAR RO‘YXATI**

**AO‘ – Alveolyar o‘siq**

**CHPJB – Chakka-pastki jag‘ bo‘g‘imi**

**JSSST – Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti**

**DI - Dental implant, Dental implantatsiya**

**IBDI – Ikki bosqichli dental implantatsiya**

**BBDI – Bir bosqichli dental implantatsiya**

**HI – Harakatchanlik indeksi**

**YI – Yig‘ma implant**

**MI – Monolit implantat**

**KT - Kompyuter tomografiyasi**

**XKT-10 – JSSSTning Xalqaro kasalliklari tasnifi, 10-tahriri.**

**XKT-S - Xalqaro stomatologik kasalliklar tasnifi (XKT-10 bo‘yicha)**

**BSR – Boshqariladigan suyak regeneratsiyasi**

**KHB – Klinik holatni baholash**

**RNT – Randoshlashtirilgan nazoratli tadqiqotlar**

**SL – Sinus-lifting operatsiyasi**

**GAP – Gidroksiappatit**

**$\beta$ -TKF – beta trikalsiyfosfat**

**YJB – yuqori jag‘ bo‘shlig‘i**

**OPTG – ortopantomografiya**

**sh.b – shartli birlik**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Dental implantatlarga o'rnatiladigan ortopedik konstruksiyalarning uzoq muddat xizmat qilishi va dental implantatsiyaning muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun yetarlicha hajmdagi suyak to'qimasi zarur bo'ladi. Tishlar yo'qotilishi natijasida jag'larda suyak to'qimasi atrofiyasi kuzatiladi. (Панин А.М. и соавт., 2014; Амхадова М.А. и соавт., 2015; Ямуркова Н.Ф., 2015; Inchingolo F. et al., ; Yang J. et al., 2015).

Dental implantatlar o'rnatish maqsadida alveolyar o'siq hajmini saqlash va tiklashning ko'plab jarrohlik usullari ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan. Suyak plastikasi operatsiyalarida autogen suyak to'qimasini qo'llash "oltin standart" bo'lib qolmoqda. Autogen suyak osteokonduktiv, osteoinduktiv xossalarga ega va u yashovchan suyak hujayralar, o'sish va ixtisoslashish omillarini o'zida saqlaydi. (Мальшешева Н.А., 2014; Гулюк А.Г. и соавт., 2015; Yang S. et al., 2015; Hu J. et al., 2014; Mangano C. et al., ).

Shu bilan birga autogen transplantatlarni qo'llash ko'p sonli asoratlar va transplantat olish uchun qo'shimcha opereatsion jarohat hosil bo'lishi bilan kechadi (Иванов С.Ю. и соавт., ). Alternativ osteoplastik materiallarni qo'llash autogen suyak to'qimasidan foydalanishda kelib chiqadigan klinik holatlardan saqlanish imkoniyatini berishi mumkin (Barone A. et al., ; Lambert F. et al., ).

Zamonaviy stomatologiyada sintetik osteoplastik materiallar (beta trikalsiyfosfat (TKF) va gidroksiapatit (GAP) aralashmasidan tayyorlangan ikki fazali keramika) keng qo'llanilmoqda. Bu material immunogenligi past, toksik ta'siri kam, infeksiya tashimaydi, osteokonduktiv xossalari yaxshi, rezorbsiya darajasini boshqarish mumkin, qon tomirlar o'sishini rag'batlantiradi, surunkali yallig'lanish jarayonlarini keltirib chiqarmaydi, sterilizatsiya paytida biologik aktivligini yo'qotmaydi. (Слетов А.А., ; Hu J. et al., 2014; ELkarargy A., ).

Hozirgi kunda adabiyotlarda rezorbsiya darajasi va osteoplastik materialning yangi hosil qilishi haqida ko'p sonli gistologik va gistomorfometrik

tadqiqotlardan olingan har xil variantli ma'lumotlar keltirilgan. Bu dental implantatsiyadan oldin okklyuzion yuklamaga bardosh beradigan sifatli osteoregeneratni shakllantirishda bazaviy ma'lumot sifatida muhim ahamiyatga ega. (Михайловский А.А., 2014; Traini T. et al., ; Koerdt S. et al., 2014).

Shu sababdan keng tarqalgan ksenogen osteoplastik materiallar va sintetik osteoplastik materiallar o'rtasida qiyosiy tahlil o'tkazish dolzarb hisoblanadi. Osteoplastik material bilan integratsiyalshuv jarayonida suyak to'qimasi regeneratsiyasining o'ziga xos tomonlarini o'rganish va qo'llash uchun ko'rsatmalar ishlab chiqildi

### **Tadqiqot maqsadi**

Dental implantatsiyadan oldin sintetik osteoplastik materialni qo'llagan holda alveolyar suyak atrofiyaga uchragan to'liq yoki qisman adentiyali bemorlarda davolash samaradorligini oshirish.

### **Materiallar va tadqiqot usullari**

1. Nurli tekshirish usullari (3 D tomografiya, ortopantomografiya) .
2. Foto hisobotlar (har bir klinik bosqich uchun).
3. Implantat turg'unligini rezonans-chastotali tahlili («Mega ISQ»)
4. Klinik tekshiruv usullari.
5. Statistik tadqiqot usullari.

### **Tadqiqot vazifalari**

1. Dental implantatsiyadan oldin alveolyar suyak hajmini tiklashda sintetik va ksenogen osteoplastik materiallarni qo'llash samaradorligining qiyosiy tahlilini o'tkazish.

2. Sintetik va ksenogen osteoplastik materiallar qo'llanilganda suyak to'qimasi regeneratsiyasining o'ziga xosliklarini qiyosiy jihatdan aniqlash.
3. Alveolyar suyak nuqsoni sintetik osteoplastik materiallar yordamida tiklangandan keyin hosil bo'lgan suyak to'qimasi zichligini nurli tadqiqot usullari bilan aniqlash.
4. Olingan ma'lumotlarga asoslangan holda sintetik osteoplastik material uchun qo'llashga ko'rsatmalar ishlab chiqish.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi**

Dental implantatsiyadan oldin alveolyar suyak hajmini tiklashda sintetik va ksenogen osteoplastik materiallarni qo'llash samaradorligining qiyosiy tahlili to'g'risida yangi ma'lumotlar olindi.

Birinchi marta sintetik osteoplastik material qo'llanilgan holda sinus-lifting va olingan tish katakchasi augmentatsiyasi operatsiyalaridan keyin hosil bo'lgan osteoregeneratning zichligi to'g'risida ma'lumotlar olindi. Tadqiqotning nurli usulidan foydalanildi. Sintetik va ksenogen osteoplastik materiallar yordamida hosil qilingan osteoregenerat zichligi qiyosiy tahlil qilindi.

### **Tadqiqotning amaliy ahamiyati**

Amaliy tibbiyotga sintetik osteoplastik material sinus-lifting va olingan tish katakchasi augmentatsiyasi operatsiyalarida keng tarqalgan ksenogen osteoplastik materiallarga alternativ sifatida ko'rib chiqildi. Sintetik osteoplastik materialdan foydalanish infeksiyon kasalliklar bilan zararlanish ehtimolini kamaytiradi. Shuningdek, osteoregenerat hosil bo'lishini nurli usul bilan nazorat qilish algoritmi taqdim etildi.

# **I BOB. DENTAL IMPLANTATSIYADAN OLDINGI SUYAK PLSTIKASINING ASOSIY TENDENSIYALARI (ADABIYOTLAR SHARHI).**

## **1.1. Alveolyar suyak atrofiyasi: etiologiya, patogenez.**

Keyingi o'n yillikda to'liq va qisman tishsizlikni davolashning keng tarqalayotgan usuli dental implantatlarga o'rnatiladigan ortopedik konstruksiyalar hisoblanadi. Bu ushbu patologiyani davolashning an'anaviy usullariga alternativ bo'lishi va amaliyotga tatbiq etilishi mumkin (Belser U.C. et al.,; Inchingolo F. et al., ). Tish qatori nuqsonlarini bartaraf etish uchun ko'priksimon protezlar qo'llanilishi mumkin. Ammo ko'p hollarda tayanch tishlarning soni va holati ushbu protezlash usulini amalga oshirishga imkon bermaydi. To'liq tishsizlikda esa faqatgina olinadigan ortopedik konstruksiyalar bilan davolash mumkin bo'ladi. Bu har doim ham bemorning talablariga mos tushmaydi. Bu muammoni dental implantatsiya yordamida hal qilish mumkin (Ловчикова М.В. и соавт., ).

Ko'pincha olingan tish sohasidagi atrofiya tufayli suyak hajmining yetishmasligi kuzatiladi. Bu suyak ichi implantatsiyasiga imkon bermaydi. (Дробышев А.Ю., ; Белозеров М.Н., Амхадова М.А., ; Базикян Э.А., Смбатян Б.С., Никитин А.А. и соавт., ; Сирак С.В. и соавт., ; Хлутков Е.С.,; Малышева Н.А; Хабиев К.Н.,).

Qator mualliflarning ma'lumotlariga ko'ra 30% dan kam bo'lmagan holatda dental implantatlarni o'rnatishdan oldin alveolyar suyak yetishmasligini bartaraf etish maqsadida qo'shimcha operatsiyalar o'tkazish zarur bo'ladi. (Гулюк А.Г. и соавт., 2015; Ackermann K.-L., Wenz B.,). Kulakov A.A. ma'lumotlariga qaraganda qisman va to'liq ikkilamchi adentiya va jag' alveolyar suyagining yaqqol atrofiyasi ortopedik yordamga murojaat qilgan barcha bemorlar sonining 69-70 % qismini tashkil etadi.

Suyak to'qimasi hajmining yetarli bo'lishi dental implantatsiyaning muvaffaqiyatli o'tishini oldindan kafolatlash uchun zarur bo'ladi [2,4,6](Панин А.М. и соавт., 2014; Aloy-Prósper A. et al.,; Triveni M.G. et al., Yang J. et al., 2015).

Surunkali odontogen infeksiyalar, tish olinishi, paradont kasalliklari, sinishlar, yangi hosilalarni olinishi, osteoparoz, irsiy kasalliklar kabi qator omillar mahalliy va generallashgan suyak nuqsonlarini hosil qilishi mumkin. (Иорданишвили А.К., Гололобов В.Г., Размыслов А.В., ; Михайловский А.А., 2014; Хесин Р.А. и соавт., 2014; Пьянзина А.В. и соавт., 2015; Sorní M. et al., Esposito M. et al., Sarikaya B. and Aydin H.M., 2015).

Shuningdek tish olish operatsiyasidan keyin alveolyar suyak yo'qotilishi operatsiya paytida tish katakchasining qisman yoki to'liq zararlanishi natijasida ham ro'y berishi mumkin. (Михайловский А.А., 2014; Irinakis T., Tabesh M., ). Suyak to'qimasi doimiy o'zgaruvchi strukturalar kompleksini o'zida saqlaydi. Suyak o'zi tiklanishi va yangi yuklamaga moslashishi mumkin. Tishni ushlab turadigan alveolyar suyak mo'rt va labil hisoblanadi. Doimiy o'zgarish holatida bo'ladi. Suyakning qurilishi va qayta shakllanishi fiziologik jarayon hisoblanadi. Bu suyak to'qimasining dinamik xususiyatini ifodalaydi. Suyak to'qimasining qayta shakllanishi tuzilmalarning osteoklastlar tomonidan yemirilishi va osteoblatlar tomonidan yangi tuzilmalarning hosil qilinish jarayonini muvoznatlashtirishni o'zida birlashtiradi. (Allegrini S. Jr et al., ).

Har doim tish olinishi ortidan suyak to'qimasining uch o'lchamli yemirilishi kuzatiladi (Bodic F. et al.,). Alveolyar o'siq va jag'g suyagi atrofiyasining bunday kechishi adabiyotlarda "alveolyar balandlik reduksiyasi" deb deb izohlanadi va qaytmas polietiologik jarayon sifatida qaraladi. (Амхадова М.А. и соавт., ; Амхадова М.А., Кречина Е.К.,; Никитин А.А. и соавт., ; Хабиев К.Н., 2015; Uda H. Et al., ).

Alveolyar suyak yemirilishi avj olib boruvchi qaytmas jarayon hisoblanadi. Bu funksional, estetik muammolarni chaqiradi va shu sohada protezlashni qiyinlashtiradi (Размыслов А.В., ; Winkler S.,)

Tishlarning yo'qotilishi alveolyar suyakning eniga va balandligi bo'yicha ham atrofiyaga uchrashiga olib keladi. Buning ortidan funksional va estetik muammolar kelib chiqadi. (Moutamed G.M., ).



C.Misch o'z ilmiy ishida tish olingandan keyingi alveolyar o'siq atrofiyasi yon tishlar sohasida 60% gacha, yuqori jag' frontal tishlar sohasida 100% gacha holatda kuzatilishini aniqladi. Bu implantlarni kerakli miqdorda va kerakli holatda o'rnatish, protezlash imkonini bermaydi.

Bu holatlarda alveolyar suyak hajmini tiklash uchun suyak plastikasi operatsiyasi o'tkazilishi zarur bo'ladi. Alveolyar suyak rezorbsiyasi jarayoniga vestibular tomonda kortikal plastika qalinligi, yonma-yon joylashgan tishlarda paradont holati, milk biotipi kabi mahalliy omillar ta'sir o'tkazadi. (Кириллова В.П. и соавт., ; Михайловский А.А., 2014),

Shuningdek tish qatori defekti sohasida qon aylanishi intensivligi ham muhim bo'ladi. (Амхадова М.А. и соавт., 2015).

Qolgan alveolyar o'siq suyak to'qimasining davom etuvchi so'rilish jarayonini hajmi cheklaydi. (Tallgren A.; ELkarargy A., ).

Tish olingandan keyingi suyak to'qimasi rezorbsiyasi tezligi dastlabki yilda yuqori bo'ladi, ayniqsa avvalgi 3 oyda juda tez kechadi. Shuningdek travmatik tish olishda yanada jadal kechadi (Амхадова М.А.; Малышева Н.А., 2014; Bodic F. et al.). Tish olinganda operatsiyadan keyingi dastlabki 6 oyda suyak to'qimasi hajmi 50% gacha yo'qotilishi haqida ma'lumotlar adabiyotlarda uchraydi (Михайловский А.А., 2014; Pietrokovski J. et al., ; Triveni M.G. et al., ), shuningdek rezorbsiya hajmi bir sohada ko'plab tishlar olinganda ham ortadi (Pietrokovski J.). Suyak to'qimasi rezorbsiyasi tezligi yuqori va pastki jag'larda farq qiladi. Ya'ni, pastki jag'da rezorbsiya tezligi o'rtacha 4 barobar yuqori (Bodic F. et al.). Schropp L. et al. ma'lumotiga ko'ra eniga suyak to'qimasi yo'qotilishi tish olingandan keyingi avvalgi 3 oyda 31,6 %, operatsiyadan 6 oy keyin 42,4 % va 12 oydan keyin 50,73% ni tashkil etadi. Tish olingan alveolyar katakning vestibulyar devori til va tanhlar devoridan farqli ravishda tezroq qayta shakllanadi, masalan: tish olingandan keyingi birinchi uch yilda vestibulyar devor qalinligi dastlabki o'lchamga nisbatan taxminan 40-60% da kamayadi (Wang H.L. et al., ), birinchi 5 yillikda 3 mm gacha balanligini yo'qotadi (Allegrini S. Jr et al., ). Tan W.L. et al. ) ma'lumotiga ko'ra tish olingandan keyingi

dastlabki 6 oyda suyak to'qimasi rezorbsiyasi gorizontal tekislikda o'rtacha 3,79 mm, vertikal tekislikda 1,24 mm ga yetadi. Boshqa mualliflar taqdim etgan ma'lumotlarga ko'ra tish olingandan keyingi dastlabki 6 oyda yuqori jag'da alveolyar o'siq atrofiya darajasi o'rtacha 4,5 mm, pastki jag' alveolyar o'sig'i balandligi 2,3 mm yo'qotiladi (Базикян Э.А., Смбатян Б.С.; Малышева Н.А., 2014; Fowler E.B., Breault L.G., ). Alveolyar o'siq rezorbsiyasi tuzilish, funksional va fiziologik komponentlardan iborat bir necha murakkab jarayonlarni o'z ichiga oladi. Tish olish jarayonida olingan xirurgik jarohat suyak to'qimasi qayta shakllanishini tezlashtirishi mumkin. (Garetto L.P. et al.). Buyrak kasalliklari, yurak-qon tomir va endokrin tizim kasalliklari, osteoparoz kabi tizimli kasalliklar bo'lishi suyak to'qimasida metabolizmga ta'sir etgan holda alveolyar o'siq rezorbsiyasini tezlashtirishi mumkin. (Янушевич О.О. и соавт., 2014; Хесин Р.А. и соавт., 2014; Козлова М.В. и соавт., 2016; Hirai T. et al., Soikkonen K. et al.). Bruksizm, protezning juda eskirishi kabi funksional kuchlar suyak so'rilishi jarayonini tezlashtirishi mumkin. (Devlin H., Ferguson M.W.). Olingan tish katakchasi sohasida suyak hajmining kamayishi dental implantatni o'rnatish sifatiga, joylashuviga va keyingi protezlashga sezilarli ta'sirini o'tkazadi (Mecall R.A., Rosenfeld A.L., ). Natijada, bu hollarda dental implantatlarni adekvat o'rnatish uchun jag' alveolyar o'sig'i hajmini tiklash talab etiladi (Buser D. et al.). Klinik amaliyotda o'z o'rnini munosib ravishda egallab, shifokorlar e'tirofiga sazovor bo'lib, ulkan muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lishiga qaramay implantatsiya bugungi kunga kelib eng asosiy to'qis — jag'lar alveolyar o'simtali atrofiyasi muammosiga yechim topolmayapti. Alveolyar o'simta hajmining atrofiya ta'sirida kamayishi implantatsiyani qo'llash imkoniyatlarini pasaytirib yuboradi, chunki bu holat pastki jag' nervining zararlanishi, yuqori jag' bo'shlig'i shilliq qavatining yirtilishiga olib kelishi ehtimoli oshib ketadi (Robustova T.G. hammualif., 2019; Tyulan J.F., Pataraya G., 2019; Bezrukov V.M., Kulakov A.A., Amxadova M.A., 2017; Godi J.F., 2016; Fanghanel J. et al., 2017).

Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, tishlar qisman yoki to'liq yetishmaydigan 25-70% bemorlarda suyak to'qimasi hajmi tanqisligi kuzatiladi, bu esa olinadigan protezlarning saqlanib qolishi, barqarorligini sezilarli miqyosda yomonlashtiradi va ulardan foydalanishdan voz kechilishiga olib keladi. Ustiga ustak, bu holat dental implantatsiyani qo'llash imkoniyatini qiyinlashtiradi, ayrim vaziyatlarda esa mutlaqo istisno qiladi (Alimskiy A.V. hammuallif., 2019; Savvidi K.G., 2019; Sadikov M.I., 2017; Jelezniy S.P., 2016; Durnovo Ye.A., 2016).

Klinik amaliyotda jag'lar alveolyar o'simtalari atrofiyasi darajasining ko'plab turlari, ko'rinishlari va darajalari mavjud bo'lib, har bir bemor holati va klinik hodisa anatomik nuqtai nazar va individual topografik xususiyatlariga ko'ra o'ziga xos ekani ta'kidlanadi. Mazkur muammo o'ta dolzarb bo'lib, ko'plab mualliflar undan tizimni shakllantirishning tayanch nuqtasi sifatida foydalanishadi va jag'lar, suyak to'qimalari shilliq qavatining barcha turdagi atrofiyasi, nuqsonlari, shakli va hajmini tasniflashda inobatga olishadi (Paraskevich V.L., Ivanov S.Yu.,; Misch CE.,JudyKWM.,2016; CawoodL.,HowellRA.,; ZarbG.,LekholmU., ).

Bugungi kunda bu masalaning yagona va universal tasnifi mavjud emas, qolaversa, ularning barchasi o'zaro uyg'unlashib, bir-birini to'ldiradi. Ayni paytda ZarbG.,LekholmU. (2016) tomonidan ilgari surilgan va suyak to'qimasi zichligini D1 darajadan (eng zich holat — kortikal tuzilma) D4 ko'rsatkichgacha (eng g'ovakli holat — gubkali tuzilma) qayd etgan tasnifdan faol foydalaniladi. Lekin klinik amaliyotda jag' alveolyar sohasining zichligi, hajmi va shakli inobatga olingan, 2016 yili C. Misch va K. Judy tomonidan ishlab chiqilgan implantologik tasnif kengroq tarqalgan. Ushbu tasnifda uning quyidagi shartli turlari o'rin olgan:

A- ko'p;

B- yetarlicha;

C- eniga va/yoki bo'yiga nisbatan yetarli emas;

D- mutlaqo yetarli emas;

Ye – alʼveolyar oʻsiq umuman yoʻq.

Maʼlumki, oʻzining asosiy tayanch vazifasidan mahrum boʻlgan alʼveolyar suyak tish olib tashlanganidan keyin atrofiya taʼsiriga tushadi, bu jarayon uzluksiz davom etadi hamda yiliga suyakning 0,5-1% hajmi boy beriladi. Tishlarning yoʻqotilishi chaynov apparatining aks aloqasiga tegishli reflektor zanjirning uzilishi va jagʻ suyagi tuzilmasining oʻzgarishiga olib keladi. Atrofiyaning yaqqol koʻrinishlari, ayniqsa, tish olib tashlanayotganda jarohat yetgan holatlarda, tish katagining asoratli bitishlarida koʻp kuzatiladi. Tish olib tashlanganidan keyingi 3 yil mobaynida alʼveolyar suyak hajmi 40-60% kamayadi. Implant oʻrnatilganidan keyin suyakka beriladigan yuklama tiklanadi, bu esa uning oʻz vazifasini tiklashiga ragʻbatlanadir, soʻrilishini bartaraf qiladi va mazkur biokibernetik tizimning qayta tiklanishiga yordam beradi (Bazikyan E.A., 2019; Smbatyan B.S., 2016; Tinti C., Parma-Benfenati S., 2017).

Alʼveolyar oʻsimtaning katta hajmdagi atrofiyasi aniqlangan holatlarda asosan anʼanaviy olinadigan protezlardan foydalanish bugungi kungacha ahamiyatini yoʻqotmagan. Taxminan 26% bemor olinadigan protezlar oʻrnatilganidan keyin ulardan turli sabablarga koʻra foydalanishmaydi. Bunday omillardan biri alʼveolyar oʻsimtaning keskin atrofiyasi taʼsirida protezning mahkam oʻrnashmasligi bilan bogʻliq. Toʻliq olinadigan protezlarning fiksatsiyasini (ayniqsa, pastki jagʻda) yaxshilash maqsadida olimlar tomonidan stomatologik materiallar, protezlar tayyorlashning klinik va laboratoriya bosqichlarini takomillashtirish; protez joyi toʻqimalarining rivojlanib borayotgan atrofiyasi oldini olish; protezlashdan oldingi tayyorgarlik bosqichida jarrohlik usullaridan foydalanish; fiksatsiyani yaxshilash uchun tish implantlarini qoʻllashni taklif etishadi, lekin hozirgacha olinadigan protez uchun nechta implant oʻrnatish lozimligi masalasi boʻyicha yagona qarorga kelinmagan (Lebedenko I.Yu., 2018; Kalivradjiyan E.S. va hammualif., 2019; Ulanova O.P., ; Kulakov A.A., ; Volostnov L.G., 2017; Perevezentsev A.P., 2019; Solovʼev M.M. va hammualif., 2019; Galyapin I.A. 2017; James RA., ; OʻRoark WL.,2019; Fenlon M. et al.,2018; Roccuzzo M., Bonino F., 2016).

Tishlar mutlaqo yo'q vaziyatlarda olinadigan protez barqarorligini ta'minlash uchun implantlardan foydalanish eng istiqbolli usul ekani e'tirof qilinadi. Lekin jag'lar alʼveolyar o'simtalari atrofiyasi aniqlangan bemorlarning aksariyatiga implant o'rnatish imkonsiz bo'lib, avval ulardagi alʼveolyar suyak hajmi yetishmovchiligini bartaraf qilish talab etiladi. Buning uchun kamida 30% vaziyatlarda oldindan suyak plastikasi operatsiyalari o'tkazilishi lozim (Ivanov S.Yu., Bizyaev A.F. va hammualif., 2018; Nikol'skiy V.Yu., Vel'dyaksova L.V., Maksyutov A.E., 2016; Nikitin D.A., 2016; Misch CM. et al., ; Hulzeler MV. et al., 2018). Yuqorida tilga olingan holatlarda implantlar darhol o'rnatiladigan usuldan foydalaniladi yoki suyak to'qimasini rekonstruktsiya qilish uslubiga murojaat qilinadi. Shuningdek, alʼveolyar suyak hajmini oshirishning murakkab yo'llari — to'qimalarning boshqariladigan regeneratsiyasi uslubi, suyak bloklari va silindrlar transplantatsiyasi qo'llaniladi. Lekin ulardan foydalanish barcha vaziyatlarda ham o'zini klinik, ahloqiy va iqtisodiy jihatdan oqlolmaydi (Lomakin M.V. va hammualif., 2015; Sisolyatin P.G va hammualif., 2017; Hentschel P., Paulun F., 2017; Draenert FG., Huetzen D. et al.,2016; Spagnoli DB., Marx RE.,2016).

Ulkan hajmli nuqsonlar aniqlanganda yoki atrofiyaning og'ir holatlarida bemorlarni davolashdan voz kechishadi yoki uzoq muddatli va 3-5 bosqichli murakkab reabilitatsiya protokollariga murojaat qilishadi. Xususan, 1-bosqichda (va bu yagonasi bo'lmasligi mumkin) suyak plastikasining natijasi mavhum operatsiyasi o'tkaziladi; 2-bosqichda tish implantlarini o'rnatish operatsiyasi amalga oshiriladi; 3-bosqich – milk shakllantiruvchilari ochiladi yoki o'rnatiladi; 4-bosqich – avvalgi biron-bir operatsiya bilan, masalan, o'z ichiga bir necha kichik pog'onalar, jumladan, hajmni oshirish va/yoki mahkamlanadigan hududni yaratishni ham olgan suyak plastikasi muolajasi bilan birlashtiriladi. Bularning barchasi davolash muddati va narxining sezilarli darajada oshishiga, jarohatlar sonining ko'payishiga olib keladi. Aksariyat vaziyatlarda bunday muolajalar salbiy klinik natijalar, qisqa muddatli prognoz va qoniqarsiz estetika bilan yakunlanadi. Shuning uchun ham davolash muddatini qisqartirish, ko'p bosqichli jarayonlar, xususan, mahallits

to'qimalar plastikasi, kichik o'lchamli yoki nostandart (maxsus) qurilmali implantlardan foydalanishdan o'zini tortishga harakat qilish maqsadga muvofiqdir (Kiselev A.A., 2018; Mish K.E., 2017; Xabiev K.N., 2016; Drobishev A.Yu., 2016; Lomakin M.V., 2016).

Albatta, suyak plastikasining autosuyak, allogen, ksenogen va sun'iy materiallardan foydalaniladigan turli usullari ham mavjud, lekin ular barqaror ijobiy natijalarni ta'minlolmaydi, qolaversa, qo'llaniladigan materiallar sifati talabga javob bermaydigan vaziyatlar ko'p uchraydi (Radkevich A.A., ; Kulakov A.A. va hammualif., ; Yantsen I.E., 2016; Heggie A., ; Jensen J. et al.,2017).

Bugungi kunda suyak plastika usullariga qo'shima ravishda (ba'zan ularning o'rniga) implantlar atrofidagi yumshoq suyak to'qimalarida o'tkaziladigan yangi, shuningdek, o'zini ijobiy tomondan namoyish qilgan uslublarga ko'proq murojaat qilinmoqda: mahkamlangan va keratinlashgan milk hajmini oshirish va yaratish; yaralarning ikkilamchi epitelizatsiyasi bilan kechadigan vestibuloplastikaning turli usullari; epitelizatsiyalangan va epitelizatsiyalanmagan autotransplantatlar; yaralar sirtini shilliq qavatning erkin qiyqimi, submukozal kollagen qiyqim, hajmdor membranalar, xatto, teri transplantatlari bilan almashtirish (Frolov A.M., 2016; Langer B., Langer L.,2016).

Hozirgi kunda boshqariladigan suyak regeneratsiyasi (BSR) va autogen suyak bloki transplantatsiyasi (ASBT) suyak plastikasining eng keng tarqalgan usullaridir. BSRda an'anaviy ravishda quyidagi suyak plastikasi materiallaridan foydalaniladi: autogen; ksenogen; allogen; sun'iy. Vaqt o'tgani sayin ushbu materillarning bir necha tarkibiy qismlardan tarkib topishi odatiy holga aylanib bormoqda. Masalan, yangi suyak o'sishini qo'llab-quvvatlaydigan osteokonduktiv matritsa va xususiy mezenximal hujayralarining osteogen (osteoblastlar yoki ularning "ajdodlari") differentsiatsiyasi jarayonini rag'batlantiradigan osteoinduktiv oqsillar, jumladan, suyakning morfogenetik oqsillarini (BMP) misol tariqasida keltirish mumkin. Ularning barchasi xususiy suyak o'rnini bosishi va/yoki autotransplantat suyak hajmining oshishini ta'mnlashga qodir deb hisoblanadi. Jarayon davomida ular asta-

sekin qayta shakllanadi, funktsiyalari, a'zolarga xos xususiyatlari tiklanadi (ya'ni, suyak regenerati sifatida) va ko'rsatkichlari me'riy talablar darajasiga yaqinlashadi (Nikitin A.A., 2016; Kolk A. et al., 2016).

Bemorning o'z suyagidan foydalanib o'tkaziladigan suyak plastikasi (autoplastika) biologik jihatdan eng maqbuli hisoblanadi va u suyak to'qimasi hajmini oshirish muammosini hal qilishga qodir. Lekin, shu bilan birga, bu usul ko'p jarohat yetkazishi, texnik jihatdan murakkabligi, jarrohlik aralashuvining davomiyligi, transplantat rezorbtsiyasi va/yoki nekrozining ko'p uchrashi kabi kamchiliklardan ham holi emas. Autogen suyak transplantati — bu Og'iz bushlig'i nuqsonlari uchun eng mukammal manba sanaladi, lekin uning olish mumkin hajmi chegaralangan, qolaversa, bu jarayon muayyan asoratlar bilan kechishi ko'p kuzatiladi. Tadqiqotlar autogen transplantatlarning o'zini kelajakda qanday tutishi mumkinligini bashorat qilib bo'lmasligini ta'kidlaydi. Autosuyak blokining qayta shakllanishi va o'z hajmini yo'qotishi ko'rsatkichi 50-100%ni tashkil qilishi mumkin, shu sababli ayrim mutaxassislar asoratlari ko'pligi sababli ham undan foydalanishni istashmaydi (Smbatyan B.S., 2016; Yaremenko A.I., 2016; Agaiuo MO., ZopoIaga M. ^ a1., ).

Ilmiy izlanishlar allogen, ksenogen va sun'iy materiallardan autogen manbalarga qo'shimcha sifatida yoki ularning ahamiyatga molik muqobili o'rnida foydalanish mumkinligini isbotladi. Ksenogen suyakli karkasdan shakllantirilgan transplantat o'lchami o'zgarmas bo'lsada, yangi suyakning shakllanishi miqdori chegaralangan. Egiluvchan emasligi, ehtimoliy antigenlik xususiyati va/yoki infeksiyalanishga moyilligi, biologik inertligining yetishmasligi, to'qimalarning "emirilish hosilalari"dan zararlanishi, narxining balandligi ulardan foydalanish imkoniyatini qisqartiradi. Ustiga ustak, aksariyat holatlarda suyak o'rindoshlari qo'llanilgan operatsiyalardan oldingi va keyingi suyak umumiy hajmida ahamiyatga molik tafovutlar kuzatilmaydi (Perova M.D., Kozlov V.A., 2018; Azizova D.A., 2016; No1shdshv1 R., Bavtal A. ye1 a1., ; 1Nœep V., 2016; BNuevM M. ye1 a1., 2016).

Barcha jarrohlik usullari va og'iz bo'shlig'ini protezlashga jarrohlik yo'li bilan maxsus tayyorlashga qaratilgan uslublar kamchiliklardan holi emas va ko'p

marotaba qayta ko'rib chiqilgan. Ularning natijasini oldindan bashorat qilish qiyin bo'lib, ijrosi texnik jihatdan murakkab sanaladi va narxi baland ekani bilan e'tiborga tushgan (Bezzubov A.E., 2017; Movsesyan G.V., 2016).

Lekin keyingi paytlarda ushbu turdagi jarrohlik operatsiyalaridan keyin yuzaga kelayotgan turli asoratlar to'g'risidagi ma'lumotlar nisbatan ko'p uchraydigan bo'lib qoldi. Xususan, transplantat rezorbtsiyasi va nekrozi, suyak plastikasi materiallarining to'laqonli qayta shakllanmasligi, implantlarning zaif barqarorligi va yakuniy zichligining yetishmasligi, ularning qo'shni anatomik sohalarga surilib qolishi shular jumlasidandir (Radkevich A.A. va hammualif., 2015; Chuplinskaya V.V., 2017; Devdariani D.Sh., Aleksandrov A.B., 2018; BaysR., ; HorningG., MullenM.,2016; EllisE., ; FonsecaR. et al., ; Buser D. et al., ; Urban IA.,Jovanovic S.,2016; BakhshalianN. et al.,2018).

Ma'lumki, fiziologik va reparativ osteogenezning shakllanishi mikrotsirkulyatsiyaning yagona reaktiv, nomaxsus, moslashuvchan o'zgarishlari to'plami va avvalgi osteogen hujayralar mobilizatsiyasi ta'sirida amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan yondashilsa, xususiy suyaklarning tiklanish qobiliyatidan maksimal darajada foydalanib, qo'llaniladigan suyak plastikasi materiallari hajmini imkon qadar kamaytirishga qaratilgan usullarni joriy qilish maqsadga muvofiqdek ko'rinadi. Dental implantlarni o'rnatishning innovatsion implant qurilmalari qo'llaniladigan usullari, shuningdek, mahalliy suyak to'qimalari plastikasi uslubini (ajratilishi, osteotomiya, osteodistraktsiya, suyak spreddingi/qalinlashishi) takomillashtirishga urinish, an'anaviy usullarga qaraganda afzalroq ko'rinadi, chunki ular jarohatlar sonini kamaytirish, reabilitatsiya muddati va narxini pasaytirish, davolash muolajalari natijasini oldindan muayyan darajada rejalashtirish imkonini beradi (Verchelotti T., 2016; Sun P.D., Xabiev K.N., 2014; Onoprienko G.A., Voloshin V.P., 2016; KomarnyckyjOG., LondonRM.,2018).

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayanib, kam invazivli jarrohlik aralashuvlari uslublarini ishlab chiqish, yot turdagi plastik materiallardan foydalanish miqdorini imkon qadar kamaytirish va tish implantlarining sodda, shu bilan birga, ishonchli



qurilmalarini qo'llash, suyak to'qimasi makonini tayyorlashning nostandart usullarini ishlab chiqish va amaliyotga kiritish, bu borada, shuningdek, suyak to'qimasi joyini ichkarigacha chuqurlashmagan holda tayyorlash, alveolyar o'simtaning vertikal, gorizontal va ko'ndalang osteotomiyasi, tish qatorlari nuqsonlari, alveolyar o'simtaning turli darajadagi atrofiyasi aniqlangan bemorlarni davolashda p̄ezozarrohlik texnikalaridan foydalanish singari innovatsion usullarni tadbiq qilish dolzarb masalalar ekani to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. (Raad Z.K., 2016; Gunьko M.V., 2016; TgoeLap A., Kiggek A., M., 2016; UegeePoSh T. ye! aI., 2014; NeyoIgYa.e! aI., 2016, 2014; patent arizasi № 2016121398 - 14.06.2016 y). Tishlar yetishmovchiligi organizmning hayot uchun nihoyatda muhim faoliyat turlari, xususan ovqat chaynashning buzilishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida ovqat hazm qilish jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatib, turli kasalliklarning rivojlanishiga zamin yaratadi. Tishlar, parodont va og'iz bo'shlig'i shilliq qavati holatining oshqozon-ichak yo'li, shuningdek, organizmning boshqa tizimlari (tayanch-harakat, yurak-qon tomir, endokrin), oliy asab faoliyati, yuqumli va onkologik kasalliklar, uyqu sifati, semizlik va umumiy himoya kuchlarining holati bilan o'zaro bog'liqligi kuzatilgan (Mattila KJ., 2017 ; Weyant RJ., 2017; Ostberg AL. et al., 2018; Emami E. yet al., 2018; Bui TC., 2016; Hansson P., 2017).

Olimlar og'iz bo'shlig'i shilliq qavati salomatligini umumiy sog'lik va tan sihatligida keksayishning foydali belgisi sifatida e'tirof etadilar (Kaufman LB., Setiono TK., 2018). Tish yetishmovchiligida Og'iz bushlig'i sohasi va organizmning boshqa ko'plab tizimlari tuzilmasi, faoliyat xususiyati, shuningdek, ular o'rtasidagi muvozanat buziladi. Bu esa muhim ijtimoiy oqibatlariga olib kelib, inson kundalik turmushi sifatining yomonlashishiga sabab bo'ladi (Tsepov L.M., 2017; Barer T.M., 2018; Nasirov R.T., 2016; Yong-Keun L., Xbyung-Dju M., 2016; Biylb P., 2014; Allen PF., 2018; Felton DA., 2017).

Tish qatorlari nuqsonlari (ayniqsa, antagonistlari saqlanib qolmagan bo'lsa) yuz tuzilishining o'zgarishi, pastki chorak qismining pasayishi, tish qatorlari

deformatsiyasi, chakka-pastki jag' bo'g'implari patologiyalari (ChPJP), miofastsial og'riq sindromining (prozopalgiya) rivojlanishiga olib keladi va birlamchi patologiyani yanada chuqurlashtiradi. Tish qatorlarining jiddiy nuqsonlari ba'zan chakka-pastki jag' bo'g'implarining qisman va butkul ajralishi bilan kechadi (Robustova T.G., 2017; Starodubov V.I., 2019; Paraskevich V.L., 2016; Nikitin A.A., 2018). Xatto, bir tishning ham yetishmasligi butun tish qatori berqarorligi, ularning siljishi (Popov-Godon fenomeni), qolgan tishlar parodontiga ortiqcha bosim tushishi, tish-jag' tizimi biomexanikasining buzilishi, okklyuzion jarohat bloklari hosil bo'lishiga olib keladi. Buning natijasida avvaliga gingivit, so'ngra suyak to'qimasi destruktiviyasi, patologik cho'ntaklar rivojlanadi (Kopeykin V.N., Mirgazizov M.Z., 2016; Maliy A.Yu., 2019; Arutyunov D.S., 2018). Chaynov tizimi faoliyatining buzilishi, ayniqsa, yon bo'limlardagi tish qatorlari nuqsonlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Tishlar yo'qotilganda yoki olib tashlanganida jag'ning muayyan hududlarida mahalliy atrofiya boshlanadi, ikkitadan ortiq tish yetishmovchiligida asta-sekin boshlanib, tobora ko'lamini kengaytib boradigan davomli atrofiya rivojlanadi. Bu holatning klinik manzarasi yuz tuzilishning o'zgarishigacha olib kelishi mumkin lab va yonoqlarning "cho'kishi" bilan tavsiflanadigan alomatlarida namoyon bo'ladi (Surov O.N., 2018; Kulakov A.A., Losev F.F., 2017; Kuznetsov A.V., 2016).

Ko'pincha bunday bemorlar jiddiy estetik buzilishlar bilan bog'liq vaziyatlarda stomatologik yordam so'rab murojaat qilishadi. Ular orasida tabassum estetikasi muammolari birinchi o'rinda turadi. Lekin tish qatorining nazarga kirmaydigan va chaynov faoliyatining yomonlashishiga olib kelmagan nuqsoni ham uning uzluksizligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, kelugsida ChPJB disfunktsiyasiga zamin hozirlaydigan asimmetrik chaynashni shakllantiradi (Ivanov S.Yu., 2018; Trezubov V.N., Sherbakov A.S., Mishnev L.M., 2016).

Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tadqiqotlari aholi, ayniqsa, keksalar orasida tiklovchi stomatologik yordamga to'la-to'kis qondirilmagan ehtiyoj mavjudligini ko'rsatdi (Kandelman D., 2018). Ta'kidlash o'rinliki, hamma tishlarini

yo'qotgan kekxa va o'ta kekxa bemorlarni protezlash bugungi kun stomatologiyasining eng murakkab muammolaridan biridir. Chunki jag'larda kechayotgan atrofik jarayonlar og'iz bo'shlig'ida salbiy klinik sharoitlarni shakllantiradi, bu esa mazkur toifa bemorlari rehabilitatsiyasini an'anaviy usullar yordamida amalga oshirishga mutlaqo imkoniyat qoldirmaydi. E'tirof qilish lozimki, mamlakatimizda yashovchi kekxa va juda kekxa yoshdagilarning ulushi kattagina bo'lib, ayrim mintaqalarda aholi umumiy sonining 30 va undan ortif foizini tashkil etadi (Surov O.N., 2019; Sherbakov A.S., Gavrilov Ye.I., Trezubov V.N., Julev Ye.N., 2019; Paraskevich V.L., 2017).

Implantologiya ayni paytda zamonaviy stomatologiyaning shiddat bilan rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va ilg'or texnologiyalardan foydalanib tishlarning qisman va to'la yetishmovchiligini davolash muammosiga o'zgacha nigoh bilan qarashga imkon beradi.

Nuqsonli tish qatori qisqa muddat ichida va eng qulay usul yordamida qayta tiklanishi zarurligini inobatga olsak, dental implantatsiya, protezlash chaynov-nutq apparatining barqaror holatini saqlab qolishning eng ilg'or usuli sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur usul yuqori texnologiyali uslublar qatorida asosli ravishda yetakchi va ustivor o'rinlarni egallab turibdi (Jusev A.I., Remov A.Yu., 2017; Pataraya G.R., 2018; Yaremenko A.I., 2017; Kulakov A.A., Gvetadze R.Sh., Braylovskaya T.V., 2016; Weiss CM., 2018; Glauser R., 2018).

AQSh va Yevropaning nufuzli tahlil agentliklari tadqiqotlariga ko'ra, implantli ortopedik qurilmalarni o'rnatishga bo'lgan talab stomatologik yordamning boshqa hamma turlariga nisbatan bo'lgan ehtiyojni ortda qoldirishi kutilmoqda. Tish implantlari va suyak plastikasi materiallari bozori esa stomatologik texnologiyalar sohasining eng tez rivojlanayotgan yo'nalishidir (analitik hisobotlar: Kalorama Information, 2018; Morgan Stanley, 2018).

Tishlar yetishmovchiligida tish-jag' tizimi faoliyatini tiklash va davolash taktikasini xolis va ob'ektiv ravishda takomillashtirib borish, tish qatorlari nuqsonlarini sifatli

va o'z vaqtida bartaraf qilish, tabiiy tishlarni butunlay boy berishning oldini olish ishlab chiqaruvchilar bosimi ostida yashayotgan amaliy stomatologiyaning eng muhim vazifalaridan biridir. Dental implantlar insonning tabiiy tishlari o'rnini to'laqonli to'ldirolmasligi, shuning uchun ularni muddatidan ilgari olib tashlashga urinmaslik zarurligini yodddan chiqarmaslik lozim (bu holat keyingi paytlarda, ayniqsa, ko'p kuzatilmoqda). Ayrim tadqiqotlar natijasi tish implantlari yashovchanlik borasida muammoli, lekin muvaffaqiyatli davolangan tabiiy tishlar bilan ham raqobat qilolmasligini ko'rsatdi (Holm-Pedersen P., Lang NP., 2019).

## **1.2. Alveolyar suyak hajmini tiklash metodlari.**

Operativ muolaja o'tkaziladigan sohada suyak to'qimasining regeneratsiyasini kutilganday amalaga oshirish xirurgik stomatologiyaning dolzarb muammosi hisoblanadi. (Мартиросян П.В. и соавт., ).

Dental implantatsiya o'tkazish rejalashtirilayotga sohada alveolyar suyak hajmini oshirish uchun ko'plab xirurgik metodlar ishlab chiqilgan: suyak bloklarini qo'llash, yo'naltirilgan to'qima regeneratsiyasi, sinus-lifting, shuningdek olingan tish katakchasi ni osteoplastik material yordamida augmentatsiya hisobiga o'siq hajmini saqlab qolish. Ko'plab mualliflar tish olingandan keyin qattiq va yumshoq to'qimalar hajmini saqlab qolish dental implantatsiyaga tayyorlashda alveolyar o'siq o'lchamini oshirishda o'tkaziladigan qimmat operatsiyalarga bo'lgan ehtiyojni sezilarli kamaytiradi. (Михайловский А.А., 2014; Afrashtehfar K.I. et al., ).

Suyak to'qimasi rezorbsiyasining oldini olish va alveolyar suyak hajmini saqlab qolish maqsadida bir bosqichli implantatsiya metodi ishlab chiqilgan. Bunda implantat tish olinishi bilan tish katakchasiga o'rnatiladi. Ammo bu usul faqatgina alveola shakli va hajmi kerakli o'lchamda, infeksiya o'choqlari yo'q bo'lganda, dental implantatning birlamchi turg'unligiga imkon bo'lganda qo'llash mumkin.

(Дагуева М.В., ; Михайловский А.А., 2014; Hong J.Y. et al., 2014; Wang Y.F. et al., 2016).

Autogen suyak transplantatlarni qo'llash suyak plastikasida "oltin standart" bo'lib

hisoblanadi. (Гурин А.Н., ; Хлутков Е.С., ; Выборная Е.И., ; Малышева Н.А., 2014; Панин А.М. и соавт., 2014; Гулюк А.Г. и соавт., 2015; Zijderveld S.A. et al., ; Allegrini S. Jr et al., ; Santos F.A. et al., ; Lee S.B. et al., ; Mangano C. et al., ; Hu J. et al., 2014; Yang S. et al., 2015). Bu transplantat suyak regeneratsiyasi uchun zarur uchta element bilan ta'minlaydi: osteokondktiv matritsa, osteoinduktiv elementlar va osteogen hujayralar. Shuningdek, yashovchan suyak hujayralar va oldingi hujayralar, zarur o'sish va ixtisoslashish omillarini ham o'zida saqlaydi (Inchingolo F. et al., ; Mangano C. et al., ). Gistologik nuqtai nazardan qaraganda bunday transplantatlar retsepiyent zona bilan analog ko'rinadi, yangi hosil bo'lgan suyak to'qimasi bilan o'ralgan, yetarlicha sekin rezorbsiyaga uchraydi. Gistomorfometrik analizlar ko'rsatadiki yangi hosil bo'lgan suyak ulushi 40% atrofida bo'ladi. (Inchingolo F. et al., ). Autogen suyak qo'llab o'tkazilgan suyak plastikasi operatsiyalari nisbatan muvaffaqiyatli va kutilgan natijalarni beradi (Marx R.E., ). Autogen suyakning asosiy ustunligi minerallar, hujayra tashqarisi matriksda kollagen va nokollagen oqsillar kabi suyak tuzilmalarini saqlab qolishi hisoblanadi. Shuningdek yashovchan osteoblastlar va suyak morfogenetik oqsillarini ham o'zida saqlaydi (Santos F.A. et al., ). Aslida esa transplantatsiyadan keyin bu hujayralarning kam foizi yashab qoladi (Allegrini S. Jr et al., ). Dental implantat o'rnatilishi rejalashtirilayotgan sohada suyak to'qimasi hajmi yetarli bo'lmasa qanotsimon-jag' va yonoq implantatlarini o'rnatish, kalta va yassi implantatlar, suyakusti pardasi osti (subperiostal) implantatlar kabi alternativ metodlar qo'llaniladi. Yuqori jag' bo'shlig'ini gidravlik zichlashtirish, implantatlarni yuqori jag' bo'shlig'i atrofiga o'rnatish, yu'qoi jag' bo'shlig'i tubini perforatsiya qilib dental implantatlarni o'rntish kabi usullar ham qo'llaniladi. (Хабиев К.Н., 2015; Peleg M., Sawatari Y., ; Schlegel K.A. et al., ; Minichetti J.C. et al., ; Chappard D. et al., ).

Несмотря на то, что в верхнечелюстном синусе замещение костного материала на органическую костную ткань может происходить и после операции дентальной имплантации и может не соответствовать уровню

выживаемости установленных дентальных имплантатов, данная операция остается точным индикатором для оценки и сравнения потенциала заживления и замещения костнопластических материалов собственной костью (Froum S.J. et al., ; Iezzi G. et al., ). Shunday qilib, sinus-lifting operatsiyasi o'tkazishda suyak to'qimasi defektini bartaraf etish uchun eng yaxshi materialni aniqlash hamon hal qilinmagan muammo bo'lib qolmoqda. Ayni vaqtda zamonaviy ilm-fannig rivoji mukammal osteoplastik materialini yaratmadi. Vrach har bir klinik holatda patologik jarayon xarakteri, bemorning umumiy ahvoli, o'z tajribasi va amaliy ko'nikmalar darajasini hisobga olgan holda ushbu klinik holat uchun optimal bo'ladigan davolash metodi va preparatni o'zi tanlashi kerak. (Дьячкова Е.Ю., 2014). Tish olingandan keyingi suyak nuqsoni augmentatsiyasi uchun optimal materialni tanlash osteoplastika samaradorligiga ta'sir qiladigan quyidagi qator omillarni hisobga olgan holda o'tkazilishi zarur: materialning osteokonduktiv xususiyati, olish sonligi, qo'llanilish xavfsizligi, biomuvofiqlik (биосовместимость), vaskulyarizatsiya tezligi va boshqalar. (Григорьян А.С. и соавт.; Лысенко Л.Н.; Хлутков Е.С.; Кулаков А.А. и соавт.; Михайловский А.А., 2014).

Turli osteoplastik materillarni taqqoslashda faqatgina o'rinbosar tayyorlangan materialning o'zini emas, shuningdek bemorning yoshi, uning umumiy salomatligi, to'ldirilgan nuqson hajmi, operatsiyadan keyingi asoratlarning borligi va ifodalanish darajasi kabi muhim jihatlarni ham hisobga olish kerak. (Виноградов А.В. и соавт.; Григорьянц Л.А. и соавт.; Размыслов А.В., ). Bugungi kunda osteoplastik materiallarning keng qamrovli turlari mavjud. Ular alohida holatda ham yoki kombinatsiya qilib ham ishlatilishi mumkin (Minichetti J.C. et al., ). Osteoplastik materiallarning uchta turli xossaalari mavjud: osteogenlik, osteokonduktivlik va osteoinduktivlik. (Muschler G.F. et al., ). **Osteogenlik** bevosita suyakka o'rnashadigan osteoblastlarning borligini bildiradi. Osteogen hujayralar transplantatga donor zonadan yoki suyak ko'migidan tushadi. **Osteokonduktivlik** — bu o'rinbosar suyak materialning karkas vazifasini bajara olishidir. Bu yangi suyak shakllanishi va mikro qon tomirlar angiogenezi qo'llab-

quvvatlaydi. **Osteoinduktivlik** ixtisoslashish (differensiallashish) omillari mavjudligini aniqlaydi. Bu mezenximal stvol hujayralar to'planishi va ixtisoslashishini, qisman osteoblastlarga aylanishini, yangi suyak to'qimasi shakllanishini yengillashtiradi.

Bunday omillar bo'lib suyak morfogenetik oqsillar oilasi (BMP), transformatsiyalovchi o'sish faktori (TGF- $\beta$ ), insulinsimon o'sish faktori (IGF), fibroblastlar o'sish faktori (FGF), trombotsitar o'sish faktori (PDGF) va boshqalar hisoblanishi mumkin. (Allegrini S. Jr et al., ).

### **1.3. Dental implantatsiyadan oldin qo'llaniladigan osteoplastik materiallar.**

Barcha osteoplastik materiallarni kelib chiqishiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

- autogen
- allogen
- ksenogen
- sintetik (alloplastik).

Autogen transplantatlarni ikkita asosiy turlarga ajratish mumkin — kortikal va g'ovak (Khan S.N. et al., ). Autogen g'ovak suyak osteogen va osteoinduktiv xossalarni o'zida saqlaydi. Miqdori va mexanik mustahkamligi cheklangan bo'lsada ideal osteokonduktiv strukturaga ega. Aynan autogen g'ovak suyak to'qimasi anatomo-funksional xossalari bilan etalon sifatida sun'iy osteoplastik material ishlab chiqaruvchilarning e'tiborini tortadi. Kortikal suyak yuqori mexanik mustahkamlik tavsifga ega, shu bilan birga osteogenlik va osteokonduktivlik xossalarda g'ovak suyakdan ortda qoladi. Alohida foydalanilganda osteoprogenerator hujayralarni o'zida saqlamaydi. (Иванов С.Ю. и соавт.; Кириллова И.А. и соавт., ; Малышева Н.А., 2014). Auto suyak transplantatlarning asosiy kamchiligi transplantat olingan sohada qo'shimcha jarohat yaratish kerakligi, transplantat olishdagi ko'p sonli asoratlar hisoblanadi. Bu asoratlarga ikkilanchi infeksiyaning rivojlanishi, og'riq, funktsiya yo'qolishi kabilar kiradi (ayniqsa bu asoratlar o'g'izdan tashqari manbadan donor

soha sifatida foydalanilganda yaqqol namoyon bo'ladi — (Schmelzeisen R. et al., ) (ИВАНОВ С.Ю. и соавт., ), Og'iz ichi manbalardan suyak transplantatlarni olganda og'iz dahlizi va retromolyar sohada chandiqli o'zgarishlar rivojlanishi mumkinligi, olingan suyak transplantat hajmining yetarli emasligi, shuningdek og'izdan tashqari manbalardan transplantat olishda anesteziolog yordami kerakligi autotransplantat qo'llashda qiyinchiliklar yaratadi. (Гребенникова И.П., ; Kalk W.W. et al., ), Shuningdek bunday operatsiyalar kata xarajatlarni talab qiladi (Santos F.A. et al., ). Лихачева С.П. и соавт. ( ) ma'lumotlariga qaraganda autoto'qimalar bilan o'tkazilgan operativ muolajalarda asoratlar kelib chiqish chastotasi 20,6% gacha yetadi.

Og'iz ichi manbalarda suyak to'qimasi o'lchamining cheklanganligi transplantat yig'ishni murakkablashtiradi. Boshqa donor sohalardan olingan transplantatlarni qo'llash past sifatiga bog'liq holda dental implantatsiya uchun yaroqsiz bo'lib chiqishi ham mumkin. (Высочанская Ю.С., ; Mangano C. et al., ). Ba'zi tadqiqotlarda autogen suyak transplantatlarning tez va oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan rezorbsiyasi ko'rsatilgan. (ИВАНОВ С.Ю. и соавт., ; Pidkönen L. et al., ; Soardi C.M. et al., ; Hu J. et al., 2014). Suyak o'rinbosarlarni qo'llash ushbu kamchiliklarni to'ldirishi mumkin (Lambert F. et al., ; Barone A. et al., ), shuningdek operatsiya davomiyligini ham kamaytiradi (Kühl S. et al., ). Hozirgi paytda autotransplantatning osteogenez, osteoinduksiya va osteonkonduksiya, yalliglanish reaksiyalarining yo'qligi, mexanik hamohanglik kabi barcha xossalarni jamlagan osteoplastik material mavjud emas. (Хабиев К.Н., 2015; Zimmermann G., Moghaddam A., ). Yangi osteoplastik materiallarni yaratishda yondashuvlardan biri — bu tabiiy suyakka kimyoviy tarkib va strukturaviy o'ziga xosliklari mos kelishidir. (Харитонов Д.Ю. и соавт., 2014), Regenerator xususiyatlarda eng yuqori o'xshashlikka erishish kerak. Donachalarning o'zaro bog'liqligi va materialning g'ovak ekanligi karkas sifatida muhim ahamiyatga ega. Bu tuzilish ozuqa moddalarning kirib borishiga imkon beradi va hujayralar va to'qimalarning o'sishini



osonlashtiradi. (Yang J. et al., 2015).  
Suyak to'qimasi regeneratsiyasi uchun qo'llaniladigan biomateriallar quyidagi talablarga javob berishi kerak:  
— muvaffaqiyatli integratsiyaga erishish uchun karkas sifatida ishlashi  
